



26-mavzu. LABORATORIYA ISHI: DIFRAKSION PANJARA YORDAMIDA YORUG'LIKNING TO'LQIN UZUNLIGINI ANIQLASH

Ishning maqsadi. Yorug'likning to'lqin uzunligini difraksion panjara yordamida aniqlashni o'rghanish.

Kerakli asbob va jihozlar. 1. Panjara doimiysi $\frac{1}{100}$ mm yoki $\frac{1}{50}$ mm bo'lgan difraksion panjara. 2. Yorug'lik manbayi. 3. O'rtasida tirkishi bo'lgan qora ekran. 4. Millimetrlı masshtabga ega bo'lgan uzun va qisqa chizg'ichlar. 5. Asboblar o'rnatiladigan qurilma (4.18-rasm).



4.18-rasm.



4.19-rasm.

Ishning bajarilishi. Asboblar o'rnatiladigan qurilma (6) ustiga millimetrlı masshtabga ega bo'lgan uzun chizg'ich (3) o'rnatiladi. Uning bitta uchiga o'rtasida tirkishi (5) bo'lgan qora ekran (4) joylashtiriladi. Qora ekranda millimetrlı masshtabli qisqa chizg'ich mahkamlangan. Qora ekran uzun chizg'ich bo'y lab siljiy oladigan holatda o'rnatiladi. Uzun chizg'ichning ikkinchi uchidagi tutqich (2) ga difraksion panjara (1) o'rnatiladi. Yorug'lik manbayi ishga tushiriladi. Panjara va tirkish orqali yorug'lik manbayiga qaralsa, tirkishning ikkala tomonida difraksion spektrlarning birinchi, ikkinchi va h.k. tartiblari ko'rinadi. Tirkishli chizg'ichni yoki difraksion panjarani uzun chizg'ich bo'y lab surib, birinchi tartibdagi qizil nur shkaladagi butun son ro'parasiga keltiriladi. Tirkishdan tanlangan nurgacha bo'lgan masofa y ni aniqlab olinadi (4.19-rasm). So'ngra difraksion panjaradan tirkishli chizg'ichgacha bo'lgan masofa x ni o'lchab olinadi. Bunda $y \ll x$ ekanligidan $\sin\varphi \approx \tan\varphi$ deb olinadi.

$\operatorname{tg}\varphi = \frac{y}{x}$ ekanligini hisobga olib (4–8) formuladan yorug‘likning to‘lqin uzunligi hisoblanadi:

$$\lambda = \frac{d \cdot \sin \varphi}{n} = \frac{d \cdot \operatorname{tg}\varphi}{n} = \frac{d \cdot y}{n \cdot x};$$

bunda: λ – yorug‘lik nuri to‘lqin uzunligi, d – panjara doimiysi.

Tajribani ikkinchi va uchinchi tartibdagi qizil nur uchun o‘tkaziladi. Shunga o‘xhash tajribalarni chap tomonda joylashgan spektrlar uchun bajariladi.

O‘lchash va hisoblash natijalari quyidagi jadvalga yoziladi.

Nur rangi	x , mm	y , mm	n , spektr tartib raqami	λ , nm	$\lambda_{\text{o'rt}}$, nm	$\Delta\lambda = \lambda_{\text{o'rt}} - \lambda $	$\Delta\lambda_{\text{o'rt}}$	Nisbiy xatolik $E_{\text{nis}} = \frac{\Delta\lambda_{\text{o'rt}}}{\lambda_{\text{o'rt}}}$

Olingan natijalarning o‘rtacha qiymati, absolut va nisbiy xatoliklar hisoblanadi.

Natijalarni o‘ng va chap tomonlar uchun solishtiriladi.



1. Tajribalarning aniqligi spektrning tartib raqami ortib borishi bilan qanday o‘zgaradi?
2. Difraksiyon panjara davrining ortib borishi o‘lchashlar aniqligiga qanday ta’sir ko’rsatadi?
3. Tajribani monoxromatik nur (lazer nuri) bilan o‘tkazilsa, qanday manzara ko’rinadi?
4. Oq nur bilan tajriba o‘tkazilsa, difraksiyon manzara markazida nima sababdan oq polosa hosil bo‘ladi?